HARBIY OILA FARZANDLARINING IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONINING O‘QUV FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Tursunboyeva Aziza Toxir qizi

Xalqaro Nordik Unversiteti 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda harbiy oila farzandlarining ijtimoiy moslashuv jarayonining o‘quv faoliyatiga psixologik ta’siri nazariy tahlil qilindi. Harbiy xizmatchilar oilalarida ota-ona safarlari, tez-tez joy almashishi va oilaviy stress bolalarda emotsional beqarorlik, yangi muhitga moslashish qiyinchiliklari, ijtimoiy izolyatsiya va akademik pasayish muammolari ta’siri asoslangan.

Kalit so‘zlar: harbiy oila bolalari, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiylashuv mexanizmlari, emotsional qo‘llab-quvvatlash, psixologik ta’sir, oila-maktab hamkorligi, o‘qituvchi ro‘li.

Kirish. Hozirgi zamon O‘zbekiston Qurolli Kuchlari rivojlanishi va harbiy oilalar sonining ortishi fonida harbiy xizmatchilar farzandlarining ijtimoiy moslashuv masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy oilalarda farzand tarbiyasi nafaqat oilaviy muhit, balki tez-tez ko‘chish, ota-onaning uzoq muddatli xizmatga jo‘nashi va oilaviy stress kabi omillar ta’sirida kechadi. Bu holat farzandlarning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonini murakkablashtirib, o‘quv faoliyatida psixologik qiyinchiliklarga olib keladi. Ijtimoiy moslashuv – bu shaxsning ijtimoiy normalar, qadriyatlar va munosabatlarga faol moslashishi bo‘lib, u o‘quv motivatsiyasi, baholar, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, harbiy oila farzandlari maktab muhitida yangi sinf, yangi o‘quvchilar va o‘quv dasturiga moslashishda qo‘shimcha psixologik yuklamaga duch keladi. Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ta’kidlashicha, ijtimoiylashuv mexanizmlari va o‘qituvchilarning roli bu jarayonda hal qiluvchi omil hisoblanadi [6;7]. Xalqaro tajribada esa ota-onaning uzoq muddatli xizmatga

jo‘nashi va bir necha marta maktab almashinuvi o‘smirlarning akademik natijalarini pasaytirishi va ijtimoiy-emotsional buzilishlarni kuchaytirishi isbotlangan [5;8].

Ushbu maqolaning maqsadi – harbiy oila farzandlarining ijtimoiy moslashuv jarayonining o‘quv faoliyatiga psixologik ta’sirini nazariy jihatdan tahlil qilishdir.

Asosiy qism. Ijtimoiy moslashuv jarayoni shaxsiyatning ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga faol moslashishini bildiradi. Bu jarayon biologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’sirida kechadi. Harbiy oilalarda bu jarayon o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki oila a’zolari doimiy ravishda o‘zgaruvchan sharoitlarga duch keladi.

Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqat va yaqin rivojlanish zonasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi [9]. Harbiy oilalarda voyaga yetayotgan bolalar esa tez-tez o‘zgaradigan ijtimoiy konteks tufayli barqaror ijtimoiy o‘rganish sharoitiga ega bo‘lmaydi, bu esa ularning moslashuv sifatlariga bevosita ta’sir qiladi.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi esa bunday bolalarning emotsional barqarorligi va identiklik shakillanishi bosqichlarida qo‘shimcha stress omillar mavjudligini ta’kidlaydi [4]. Doimiy ravishda yashash joyi, maktab va do‘stlar almashishi, ota-onaning xizmatda bo‘lishi bolaning “ishonch”, “tashabbus”, “mehnatsevarlik” kabi bosqichlarida ichki ziddiyat kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga binoan, bola moslashuvini kuzatish, taqlid va mustahkamlash orqali egallaydi [2]. Harbiy oilalar farzandlarining hayotida esa kuzatish uchun barqaror ijtimoiy modelning mavjud emasligi, do‘stlar almashishi va ijtimoiy rollarning tez-tez qayta shakillanishi moslashuv mexanizmlarini murakkablashtiradi.

Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi esa harbiy oilalar bolalarining moslashuv jarayonini eng to‘liq yoritadi. Uning takidlashicha, bola rivojlanishi mikro (oila, maktab), mezo (maktab-oila aloqasi), ekzo (ota-onaning ish muhiti), va makro (jamiyat qadriyatlari) tizimlari ta’siri ostida shakillanadi [3]. Harbiy xizmatning o‘ziga xosligi – tez-tez ko‘chishh, xizmat jadvali, xavf omili, jamiyatdagi status tushunchasi – aynan ushbu tizimlararo uzluksizlikni buzadi va moslashuv jarayonini murakkablashtiradi.

Otayeva S.S ishida harbiy oila farzandlarining ijtimoiylashuv mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Ular orasida ajratish, o‘z-o‘zini cheklash, identifikatsiya, empatiya va refleksiya mexanizmlari asosiy o‘rin tutadi. Bu mexanizmlar o‘yin va o‘quv faoliyati orqali shakillanadi. Masalan, harbiy oila farzandi tez-tez yangi muhitga tushganda identifikatsiya mexanizmi orqali yangi sinf jamoasiga qo‘shiladi, ammo stress tufayli empatiya va refleksiya zaiflashishi mumkin. Natijada o‘quv faoliyatida motivatsiya pasayishi, diqqat jamlay olmaslik va ijtimoiy qo‘rquv paydo bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuvning buzilishi o‘quv natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi, chunki bu vaqtda bolalar yangi o‘quv materialni o‘zlashtirish o‘rniga moslashuv stressini yengishga majbur bo‘ladi [6].

Harbiy oila farzandlarining ijtimoiy moslashuvida o‘qituvchilarning o‘rni alohida muhim. Quchqorova N.M. va Otaboyeva I.T. ta’kidlashicha, o‘qituvchi harbiy farzand uchun nafaqat bilim beruvchi, balki psixolog, ustoz va do‘st vazifasini bajaradi. Yangi sinfga kelgan farzand yangi o‘quv jarayoni, xulq-atvor qoidalar va ijtimoiy munosabatlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. o‘qituvchi individual yondashuv orqali bolalarning moslashuv mexanizmlarini faollashtirish mumkin: masalan, sinf jamoasiga empatiya rivojlantirish, refleksiya uchun suhbatlar tashkil qilish. Agar o‘qituvchi harbiy oila xususiyatlarini tushunmasa, farzand izolatsiyaga tushib, o‘quv faoliyati samaradorligi pasayadi.

Bu holat psixologik ta’sir sifatida o‘quv motivatsiyasining susayishi, baholarning tushishi va ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanmasligida namoyon bo‘ladi [7].

Xalqaro tajribalarda bu muammo yanada chuqurroq o‘rganilgan. Nicosia va hamkasblari tadqiqotida ota-onaning uzoq muddatli xizmatga jo‘nashi o‘smirlarning akademik ko‘rsatkichlarini pasaytirishi, mustaqillik va mas’uliyatni buzishi isbotlangan. Bu ta’sir o‘g‘il bolalarda kuchliroq namoyon bo‘ladi. Ota-ona depressiyasi esa farzandning ijtimoiy-emotsional holatiga qo‘shimcha salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, Ruff va Keim maktab almashinuvlarining ta’sirini tahlil qilib, harbiy farzandlarning 6-9 marta maktab almashishi o‘quv bo‘shliqlarini, do‘stlik munosabatlarining zaiflashishini va emotsional stressni keltirib chiqarishini ko‘rsatgan. Maktab maslahatchilari harbiy madaniyatni tushunish, tengdoshlar dasturlarini joriy etish va ota-ona bilan hamkorlik orqali bu qiyinchiliklarni yumshatishi mumkin [5;8].

Xulosa. Harbiy oila farzandlarining ijtimoiy moslashuv jarayoni o‘quv faoliyatiga sezilarli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, ijtimoiy mexanizmlari oilaviy stress va ko‘chish sharoitida zaiflashib, o‘quv motivatsiyasi va natijalarini pasaytiradi; ikkinchidan, o‘qituvchilarning faol ishtiroki moslashuvni tezlashtirib, psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etadi; uchinchidan, uzoq muddatli xizmatga jo‘nash va maktab almashinuvi xalqaro tajribada akademik va ijtimoiy buzilishlarni kuchaytiradi.

Taklif sifatida maktablarda harbiy oila farzandlari uchun individual psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish, o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar o‘tkazish va oila-maktab hamkorligini kuchaytirishni tavsiya qilish mumkin. Ushbu choralar farzandlarning o‘quv faoliyatini samaraliroq qiladi va ularning barkamol shaxs sifatida shakillanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M.: Aspekt Press, 2007.
2. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Prentice-Hall.
3. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development: Expiriments by nature and design. Harvard University Press.
4. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and crisis. W. W. Norton and Company
5. Nicosia N. va boshq. Parental Deployment, Adolescent Academic and Social–Behavioral Maladjustment. Public Health Reports, 2016.
6. Otayeva S.S. Harbiy oila farzandining ijtimoiylashuv jarayoni mexanizmlari. Polish Science Journal, 2021.
7. Quchqorova N.M., Otaboyeva I.T. Harbiy oila farzandlarining ijtimoiylashuv jarayonida o‘qituvchilarning o‘rni. Polish Science Journal, 2021.
8. Ruff S.B., Keim M.A. The Impact of Multiple School Transitions on Military Children. Journal of School Counseling, 2014.
9. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press